

Boshlang'ich sinflarga ot so'z turkumini o'rgatishda interfaol metodlardan foydalanish

Toshmamatova Zarnigor Qaxramon qizi

*Termiz Davlat Pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim fakulteti Boshlang'ich
ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi*

Annotatsiya : Ushbu maqola boshlang'ich sinflarga ot so'z turkumini o'rgatishda interfaol metodlardan foydalanish haqida bo'lib , ilmiy adabiyotlardagi interfaol metodlar to'g'risidagi ma'lumotlar asosida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Interfaol metodlar, guruh, fikrlash, dars, usul, interfaol ta'lim, jamoa, mashg'ulot maqsadi, g'oya.

Kirish .O'zbekiston kelajagi buyuk yurt. Kelajak esa yoshlar qo'lida. Kuchli salohiyatga ega , har tomonlama yetuk barkamol avlodgina ona vatan tayanchi bo'la oladi. Shu sababli ta'lim -tarbiya tizimi sifatini oshirish eng muhim vazifalardan biridir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: "Yangi O'zbekistonning asosiy ustuni - bilim, ta'lim va tarbiya bo'ladi"-fikrlarini bejiz aytmaganlar. Dars jarayonlarimizni dunyoning ta'lim tizimi rivojlangan Finlyandiya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya kabi davlatlardan andoza olgan holda turli usullarda tashkil qilish bugungi kun talabi. Interfaol metodlar, axborot texnologiyalari, ko'rgazmali qurollar dars samaradorligini oshiradi, kutilgan natijaga erishishni ta'minlaydi.

Interfaol metod-o'tilayotgan mavzuni qiziqarli va tushunarli bo'lishiga xizmat qiladi. O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, o'quvchilar faolligini oshirish metod orqali amalga oshiriladi. Interfaol metod shaxsiy sifatlarni shakllantirish, o'quvchilar uchun qulay sharoitlar yaratish, muloqotni yo'lga qo'yish, o'qish jarayonida o'zaro kelishmovchiliklarni oldini olish kabi, muammolarni hal qiladi.

"Interfaol" so'zi inglizcha "interact" tarzida "inter"- o'zaro, "act"-harakat qilmoq, "o'zaro harakat qilmoq" ma'nolarini bildiradi.

Interfaol ta'limda norasmiy usuldagi bahs-munozaralar, materialni erkin holdagi bayoni va ifodasi , ma'ruzalar kamligi, seminarlar ko'pligi, har xil guruh, jamoa bo'lib ishlashga topshiriqlar berish va boshqa metodlar asosiy mezonlardir.

Interfaol metodlarning eng keng tarqalgan turlari quyidagilar:

-----"Aqliy hujum"

-----"BBB jadvali"

-----"Zigzag" strategiyasi metodi

-----"Klaster "

----"Venn diagrammasi"

-----"Arra" metodi

Mazkur metodlar ayniqsa, boshlang'ich sinflar uchun qo'l keladi. Ona tili fanida so'z turkumlarini o'rgatish murakkabroq jarayon bo'lib, o'quvchilarga o'rgatishda bir muncha qiyinchiliklar tug'diradi.

Interfaol metodlar o'quvchilar diqqatini uzoq vaqt jamlash, qiziqtirish, takrorlash va boshqa usullarda ajoyib samara beradi.

Ot so'z turkumini o'rgatishda quyidagi interfaol metodlardan foydalanish mumkin: "Aqliy hujum" bu usul 30-yillarning oxirida ishlab chiqilgan. Ushbu metod mavzu bo'yicha berilgan muammolarni yechishda eng ko'p qo'llanadigan metod hisoblanib, o'quvchilarni har tomonlama fikrlashini, tasavvur va g'oyalarini ijobiy tomonlama qo'llash borasida harakatlarni vujudga keltirishga xizmat qiladi.

Ushbu metod orqali dars jarayonida yuzaga kelgan muammoga bir nechta ijobiy yechimlar topish mumkin.

Dars jarayonida "Aqliy hujum" metodini qo'llashda bir qancha qoidalarga rioya qilish kerak. Bu qoidalar quyidagicha:

1. Mashg'ulot davomida ishtirokchilarni o'rta qo'yilgan muammo yuzasidan kengroq fikrlashga chaqirish, bu orqali o'zgacha fikrlashga erishish.

2. Har bir o'quvchining bildirayotgan fikri va ilgari surgan g'oyasi rag'batlantiriladi. Fikrlar ichida eng to'g'risi tanlanadi. Rag'batlantirishlar orqali yangi va kutilmagan g'oya va fikrlarga erishiladi.

3. Har bir ishtirokchi o'z fikrini asoslashi, izohlashi va hatto o'zgartirishi ham mumkin.

4. Mashg'ulot davomida o'quvchining faoliyati muayyan talablar bo'yicha nazorat qilinib, aytilayotgan fikrlar baholanishining oldini oladi.

Agar fikrlar baholanilsa, hamma o'z shaxsiy fikrini asoslashga urinadi, bu esa yangi fikr tug'ilishiga to'sqinlik qiladi.

Mazkur metod qo'llashning asosiy maqsadi har qanday muammoni chuqur o'ylagan holda hal qilishni o'rgatish va uni rag'batlantirishdir.

Dars ishtirokchilarining o'zlarini qulay his etishlari uchun qulay muhit yaratish, g'oyalarni yozish uchun kerakli jihozlar bilan ta'minlash, mavzuni aniqlab olish, har bir bildirayotgan fikrni inobatga olish, barchaga o'z fikrini ilgari surish uchun sharoit yaratish, bildirilayotgan fikrlarni qo'llab-quvvatlash, qo'shimcha orqali boyitish, kimningdir fikri ustidan kulish, unga kinoya qilishga yo'l qo'ymaslik ushbu metoddan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Arra metodi-mazkur metod kichik guruhlarda amalga oshiriladi. Har bir guruh 6-8 ta o'quvchidan iborat bo'ladi. Darsda o'rganilgan mavzu muayyan tugallangan holda

bir nechta qismlarga ajratiladi. Shu qismlarga oid topshiriqlar tuzib chiqiladi. Dastlab, har bir guruh bittadan topshiriqni bajaradi va shu qism yuzasidan "mutaxassis" bo'ladi. Qaytadan guruhlar tashkil qilinadi. Guruhlarning har biri hamma topshiriq bo'yicha mutaxassis bo'lishi shart. Guruh a'zolari o'zlari egallagan bilimlarni aralash tishlari misolida ketma-ket bayon qilib berishadi. Guruhlarda mantiqiy uslubda qayta ishlaniladi.

"Bilaman, Bilib oldim, Bilishni xohlayman"

Sinfda o'quvchilar guruhlariga bo'linadi. Guruhlarga nom qo'yiladi. Doska teng uchga bo'linadi. Doskadagi birinchi qatorga "Bilaman", ikkinchi qatorga "Bilib oldim", uchinchi qatorga "Bilishni xohlayman" so'zlari yozib qo'yiladi.

Bugungi o'tilayotgan mavzu bo'yicha o'quvchilardan qanday ma'lumotlar bilishini so'rash kerak. O'quvchilar tomonidan aytilayotgan fikrlar "Bilaman" so'zi yozilgan bandga yozib boriladi. Barcha guruh a'zolarining fikri tugallanmaguncha yozib boriladi. Bunda aytilayotgan hamma fikr va hammaning fikri inobatga olinadi. Barcha a'zolar faol ishtirok etishga chorlanadi. So'ngra o'qituvchi mavzuga oid, eng asosiy ma'lumotlar jamlangan matnlarni guruhlariga tarqatib chiqiladi va o'zi ham tushuncha berib o'tadi. O'quvchilar matnlarni o'qib chiqib, o'zaro tahlil qilishadi. Bugungi o'rganilgan ma'lumotlar aytilib, "Bilib oldim" so'zi yozilgan qatorga yoziladi. "Bilishni xohlayman" qatoriga esa o'quvchilar ushbu mavzu bo'yicha nimalarni bilishni xohlashi so'raladi va yoziladi. Ushbu metod o'quvchini fikr yuritishga va tahlil qilishga undaydi. Mavzuni chuqur va samarali o'rganishga xizmat qiladi.

Venn diagrammasi - o'tilayotgan mavzu va oldingi mavzularning o'zaro farqli va o'xshash jihatlarini topish, taqqoslash maqsadida qo'llaniladi. Masalan: ot so'z turkumi bilan sifat so'z turkumini o'ralaylik.

Farqli jihati:

So'rog'ida: ot - Kim? Nima? Qayer?

Sifat: Qanday? Qanaqa?

Ot-predmet nomini bildirib keladi. Sifat-narsa, hodisaning belgisini bildiradi.

O'xshash: Ikkovi ham mustaqil so'z turkumi, yasaladi, sintaktik vazifada keloladi.

Ushbu metod o'tilayotgan mavzu haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lish va o'tilgan mavzuni takrorlashga xizmat qiladi.

Klaster metodi - muayyan mavzu bo'yicha erkin, ixtiyoriy fikrlashni ta'minlaydi. Klaster metodining aniq bir obyekti mavjud emas. Mavzuni puxta o'rganish va keng fikrlash, mulohazani shakllantirish, yangi g'oyalar paydo bo'lishini ta'minlaydi.

Xulosa oʻrnida shuni aytish joizki, yuqorida keltirib oʻtilgan metodlar nafaqat boshlangʻich sinflarga ot soʻz turkumini oʻrgatish, balki, boshqa mavzularni ham noanʻanaviy shaklda samarali oʻrganishga xizmat qiladi. Bu metodlar bugungi axborotlashgan zamon talabi desak, mubolagʻa boʻlmaydi. Dunyoqarashi keng, oʻz fikrini erkin ifodalay oladigan, har qanday muammoga ijobiy yechim topa oladigan shaxsnigina biz barkamol shaxs deya olamiz. Shaxs shakllanishida taʼlim jarayoni asosiy oʻrin egallaydi. Interfaol metodlar orqali kutilgan natija samara beradi. Har bir pedagog interfaol taʼlim usullaridan xabardor boʻlmogʻi lozim. Metodlar bosqichi, bajarilish tarzi, oʻquvchilar faolligini ham inobatga olgan holda darslarni olib borish maqsadga muvofiqdir. Metodlarni qoʻllashdan asosiy maqsad, undan kutilgan natijadir. Shu sababli, har bir metodni qoʻllash usuli, maqsadi aniqlab olinadi. Dars boshlanishidan oldin qoʻllaniladigan metodlar va ularga ajratilayotgan vaqtlar taqsimlab olinadi. Ushbu usullar birinchi sinflardan qoʻllanib borilsa, oʻquvchilarda koʻnikma shakllanib boradi. Yangi, murakkabroq metodlarga ham ruhan, ham aqliy jihatdan tayyor boʻlishadi. Jamoada, guruhlarda va individual ishlash, jamoaviy munosabat ular uchun tanish va odatiy hol hisoblanadi. Bu esa oʻqituvchi uchun bir muncha qulay boʻlib, qiyinchiliklar tugʻilishini oldini oladi. Bir soatlik dars buyuk bir asar hisoblanadi. Yaxshi natija bilan oʻtgan bir soat dars taʼlim jarayonining asosiy poydevorlaridan biri hisoblanadi. Asar muallifi esa bevosita oʻqituvchi hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar :

1. Jumayev. M. "Matematika oʻqitish metodikasi". (OOʻY uchun darslik.) Toshkent. "Turon-Iqbol", 2016-yil.
2. Maktab matematika darsliklari. 2020-yil.
3. Azizxoʻjayeva. N. N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - Toshkent: TDPU, 2006.
4. G. Boymurodova, X. Sattorova va b. "Oʻqish" 3-sinf oʻqituvchilari uchun metodik qoʻllanma. - T.: "Sharq", 2016. - 240 b.
5. Azimova. I, Mavlonova. K, Qurunov. S, Tursun. Sh. "Ona tili va oʻqish savodxonligi" 1-sinf uchun darslik. 1-2-qism. "Yangiyoʻl poligraf servis" MChJ nashriyoti. 2021-yil. 208 b.
6. Azimova. I, Mavlonova. K, Qurunov. S, Tursun Sh. "Ona tili va oʻqish savodxonligi" 2-sinf uchun darslik. 1-2-qism. "Yangiyoʻl poligraf servis" MChJ.
7. <http://www.ziyonet.uz/>